

ABDUQODIROV Muhammadjon,

“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik
litseyi o’quvchisi

Ilmiy rahbar: AKHMEDOV Yunusjon

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TARIX FANINING RIVOJLANISHI

РАЗВИТИЕ ИСТОРИЧЕСКОЙ НАУКИ В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА И ТИМУРИДОВ

THE DEVELOPMENT OF HISTORICAL SCIENCE UNDER AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS

Annotatsiya. Amir Temur faoliyati siyosiy jarayonlar bilan bog’liq bo’lsa-da, davlat hayotining turli sohalarida uning amalga oshirgan ishlari haqida jamoatchilik unchalik xabardor emas. Sohibqiron faoliyati aks ettirilgan ilmiy manbalarni o’qish jarayonida uning hukmronlik davrida ilm-fanning muayyan tarmoqlari nihoyatda rivojlangani, jamiyat taraqqiyotiga o’z ta’sirini ko’rsatgani va hukmdorning o’zi olimlarga homiylik qilganligi haqidagi ma’lumotlarga guvoh bo’lamiz. Amir Temurning o’zi ham ilm-fanning turli sohalaridan xabardor, aynan shu bilimlarining xaxirasi unga davlat boshqaruvi jarayonidagi qator muammolarni hal etishda qo’l kelgani, shuning uchun Temur qiyofasida ma’orifparvar hukmdor namoyon bo’lishi va uning bu jihatlarni yanada chuqurroq o’rganishimiz zarurati yuzaga keladi. Temur o’zi tarix ilmiga qiziqishi baland bo’lgani, bu sohaga oid bilimlari unga davlat boshqaruv jarayonida yordam bergani, uning davrida tarixnavislik ilmi rivojlanib qator olimlar yetishib chiqqanligi haqida ma’lumotlar diqqatga sazovordir. Mazkur maqola aynan Temur hukmronligi davrida faoliyat yuritgan tarixnavis olimlar faoliyatini yoritish orqali muayyan tarixiy davrni ma’naviy-ma’rifiy qiyofasini yoritib berishga ham xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Amir Temur, tarixnavislik, “Zafarnoma”, Yazdiy, Shomiy, Hofizi Abro’, Ibn Xaldun, Ibn Arabshoh, Mirxond, Xondamir, Bobur, “Boburnoma”, Natanziy, Samarqandiy.

Аннотация. Традиционно образ Амира Темура ассоциируется с военными завоеваниями. Однако малоизвестно, что он был также покровителем науки и культуры. Историческая наука при его дворе переживала расцвет. Амир Темура, сам будучи глубоко интересующимся историей, понимал ее роль в укреплении государственности и формировании национального самосознания. Под его патронажем были созданы многочисленные исторические сочинения, которые не только восхваляли его деяния, но и служили важным источником информации о жизни государства. В данной статье мы рассмотрим, как историческая наука способствовала укреплению власти Тимура и развитию его государства, а также проанализируем содержание созданных в это время исторических произведений.

Ключевые слова: Амир Темура, историография, “Зафарнаме”, Язди, Шами, Хафизу Аbru, Ибн Халдун, Ибн Арабшах, Мирхонд, Хондамир, Бабур, “Бабурнаме”, Натанзи, Самарканди.

Abstract: Despite primarily being recognized for his military conquests, Amir Timur’s contributions to science and culture were significant. Historical sources reveal that various fields of knowledge flourished under his patronage, and he actively supported scholars. Timur himself possessed a keen interest in history, which proved invaluable in his governance. To fully appreciate Timur’s legacy, it’s essential to delve into his role as an enlightened ruler and his patronage of historical scholarship. During his reign, historiography thrived, producing numerous scholars who enriched the intellectual landscape of the era. This article aims to illuminate this aspect of Timur’s legacy by highlighting the contributions of historians working during his time.

Keywords: Amir Temur, historiography, “Zafarnama”, Yazdi, Shami, Hafizi Abru, Ibn Khaldun, Ibn Arabshah, Mirkhond, Khondamir, Babur, “Baburnama”, Natanzi, Samarqandi.

KIRISH

Siyosiy hukmronlikni Movarounnahr ustdan qo’lga kiritgan Amir Temur mamlakat hududlarini xavfsizligini ta’minlash, o’z davlatining iqtisodiy barqaror bo’lishiga erishish uchun ichki va tashqi tahdidlarga qarshi kurashishi zarur edi. Bu masalani baholashda tarixiylik tamoyilga tayanishimiz kerak. Amir Temur o’z davrining hukmdori sifatida mavjud

davlat boshqaruv an'analariga rioya qilishdan tashqari, ularni yangiliklar bilan to'ldirgan, bu an'analarni rivojlanishiga xizmat qilgan. O'rta asr hukmdorlariga xos ravishda davlatchilik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladigan eng kichik jihatlarni ham nazardan chetda qoldirmaslikka, saltanatini barqaror bo'lishiga yordam beruvchi barcha vositalarni ishga solgan. Eng muhimi, aksariyat feodal hukmdorlardan farqli ravishda u mamlakat barqarorligining sharti sifatida faqat siyosiy jarayonlarni emas, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarning ahamiyati muhimligini ham bilganida va bu sohalarini rivojlanishi uchun imkon qadar shart-sharoitlarni yaratib berganligidir. Yaratib berilgan imkoniyatlar hosilasi sifatida Temur davlatida ilm-fan, madaniyat va ma'naviy hayotning rivojida ulkan qadam tashlanishi namoyon bo'ladi va uning ta'siri deyarli bir yarim asr davomida o'lkamizdagi madaniy hayotning rivoji uchun quvvat baxsh etdi. Temur davlatida madaniy sohalarining ayrim jihatlari emas, balki uning kompleks shaklda rivoj topganligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, tarixshunoslik ilmi har qachongidan ko'proq rivojlanish sari yuz tutdi va bu holat o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayoti haqida tasavvurlar paydo qilishimiz uchun keng imkoniyat beradi. Bu jarayon keyinchalik boshqa temuriy hukmdorlar davrida ham davom etganligi, natijada tarixshunoslik ilmining keyingi yillardagi taraqqiyotiga jiddiy asos bo'lganligiga guvoh bo'lamiz.

ASOSIY QISM

Davlatlarning qanday sabablarga ko'ra zavol topganini, olamda bo'layotgan voqealarni, payg'ambarlar va avliyolar haqidagi qissalarni, o'tgan podshohlar to'g'risidagi xabarlarni, ularning saltanat taxtiga qanday yetishganlaridan xabardor bo'lib turishni istagan Amir Temur uchun tarix va tarixchilar shunchaki oddiy tushunchalar bo'lmaganligi aniq. Shuning uchundir Sohibqiron o'zining farzandu nabiralariga pandu nasihat ila aytgan tuzuklarining yettinchisida sayyidlar, ulamo, mashoyix, oqilu donolar, muhaddislar qatorida tarixchilarni ham sara, e'tiborli odamlar

hisoblab, izzatu hurmatlarini o'rniga qo'yganligini yozadi [1:76]. Hukmdorning bu fikrlariga isbotni Temur va temuriylar davri tarixchilarini faoliyatini o'rganish orqali dalillarni topishga erishsak bo'ladi.

Amir Temur va temuriy hukmdorlar davri tarixchilari faoliyatini o'rganar ekanmiz, ularning o'z davrini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini yoritishga asarlarida jiddiy e'tibor qaratganligiga guvoh bo'lamiz. Ularning asarlari o'sha davr uchun ham bugungi kun nuqtai nazaridan ham ilmiy qiymati baland asarlar sanaladi. Bu asarlarda o'rta asr tarixiy voqealarini bayon etishning o'ziga xos uslublari ko'zga tashlanadi. Hukmdorlarni vasf etish, sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqealar muayyan bir shaxs atrofida, yoki unga bog'liq tarzda yozib borilgan. Asarlardagi bunday yondoshuv qaysidir ma'noda tarixiy shaxsni faoliyatini ochib bersada, uning tarkibiy qismi tarixiy voqealarni ham bayon etish bilan olib boriladi.

Buyuk olim G'iyosiddin Ali ibn Jamol al-Isлом Yazdiyning "Ro'znomai g'azavoti Hindiston" ("Hindistonga yurish kundaligi") risolasi Amir Temur faoliyatiga oid ilk asar hisoblanadi. Asar Amir Temurning shaxsiy ko'rsatmasi bilan 1399-1403 yillar oralig'ida yozilgan bo'lib, unda 1398-1399 yillardagi Temurning Hindistonga yurishi batafsil tasvirlangan. Yazdiy risolasiga Amir Temurning munosabati e'tiborga sazovordir. Bu munosabat Amir Temur shaxsiy xislatlarining ayrim jihatlarni birmuncha yoritib beradi. Bu asar "g'ayritabiyy iboralarsiz va kitobxon uchun tushunarli uslubda" yozilishi lozim edi. Shu sababli G'iyosiddin Alining ko'pincha asosiy ishga aloqasi bo'lmagan va bayon mavzuini xiralashtiradigan, tushunish qiyin bo'lgan dabdabali va jimjimador tasvirlari Amir Temurga unchalik yoqmadir [2:197].

Amir Temur va Temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar orasida Nizomiddin Shomiy va Sharofuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari, o'ziga xosligi va qimmatli dalillarga boyligi bilan, shubhasiz, birinchi o'rinda turadi. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"sida Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishidan to uning G'arbiy

Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo va Turkistonga qilgan yetti yillik yurishi voqealari bayon etilgan. Mazkur asarning qo'lyozma nusxalari juda kam bo'lib, Turkiya hamda Armaniston kutubxonalarida saqlanadi.

Yana bir "Zafarnoma" Sharofuddin Ali Yazdiy qalamiga mansub bo'lib, ko'tarinki uslubda bahodirlik qissasi tarzida yozilgan. Asarda Temur tarixidan tashqari, Xalil Sulton hukmronligi davridagi voqealar ham yozilgan. Asarda Amir Temur tarixi, uning tavallud topishidan to Xalil Sulton hukmronligiga chek qo'yilishigacha bo'lgan davrda Movarounnahr, Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlarda kechgan voqealarni mohirona bayoni amalga oshirilgan [3:243].

Tarixchi va elshunos olim Shahobuddin Abdulloh (Hofizi Abru) tarix ilmini rivojiga o'z asarlari bilan hissa qo'shdi. U Amir Temurning xizmatida yurib bir qancha mamlakatlarda bo'lgan. Shohruhning saroyida tarixnavis bo'lib xizmat qilgan. Hofizi Abru bir necha muhim tarixiy asarlar yozib qoldirgan [5:247]. Ulardan biri "Majmu'ayi Hofizi Abru" deb ataladi. Ikkinchi asari "Zubdat ut-tavorixi Boysung'uriy" nomi bilan mashhur. Uning asarlarida olamning yaratilishidan to 1431 yilgacha bo'lgan voqealar bayon etiladi.

Temur va temuriylar davrining yana bir mashhur tarixchisi eronlik olim Muiniddin Natanziy bo'lib, uning "Muntaxab ut-tavorixi Mu'iniy" asari mashhur sanaladi. Asar 1413 yili Sherozda Temuriy Iskandar Mirzo saroyida yozilgan. Asarda eng qadimgi davrlardan to Amir Temur vafotigacha yuz bergan muhim tarixiy voqealar qisqacha bayon etilgan. Ko'p hollarda muallif har bir sulola tarixiga alohida bob bag'ishlagan. Asarning so'nggi qismlari Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Asarda Amir Temur yashagan va hukmronlik qilgan davrda yuz bergan tarixiy voqealar bir muncha mufassal bayon qilingan.

Amir Temur zamondoshi – mashhur arab tarixchisi Abdurahmon Abu Zayd ibn Xaldun (1332-1406) faoliyati ham diqqatga sazovor. Uning ko'p jildli asosiy tarixiy-ijtimoiy asari

"Kitob al-ibor" ("Nasihatomuz misollar kitobi") jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi ta'limotga hamda musulmon Sharqi xalqlari va Mag'rib xalqlari tarixini o'rganishga qo'shilgan katta hissa deb tan olingan. Ibn Xaldun Damashq shahrining Amir Temurga topshirilishi shartlari haqida muzokara olib borgan Damashq delegatsiyasi tarkibiga kirgan edi. Shu tariqa Ibn Xaldun Amir Temur bilan shaxsan suhbatlashishga musharraf bo'lgan. Ibn Xaldun Amir Temurning aqliy salohiyati va fikrlash qobiliyatiga yuksak baho bergan. Amir Temur ibn Xaldunni tarixni chuqur bilishi bilan hayratga solgan. Xususan, Amir Temur tarixchi bilan suhbatda muarrix Tabariy (X asr) qarashlariga uning munosabatini, shuningdek, Amir Temur Mag'rib o'lkalari haqida ham ma'lumot berishni so'raydi. Bu esa buyuk hukmdorning tarix ilmini qanchalik chuqur bilishini namoyon etadi. Ibn Xaldun o'sha paytda Amir Temur sehrgarlik va jodugarlik kuchiga ham ega, degan tasavvurlarni qat'iy rad qildi, uning munozara va bahslarni yaxshi ko'radigan o'tkir zakovatli va teran zehnlilik inson ekanligini ta'kidlaydi [4:84].

Shihobiddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim (1389-1450) zamondoshlari orasida Ibn Arabshoh nomi bilan mashhur bo'lgan. Uning "Ajoyib al-maqdur fi-axbori at-Taymur" ("Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari") asari Temur va uning zamonidagi sodir bo'lgan voqealarni o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Ibn Arabshohning adabiyot, grammatikaga oid bir qancha asarlari ham mavjud. Ibn Arabshohning asarida muayyan bir holatda Temur davlati va unga chegaradosh mamlakatlar siyosiy, xo'jalik va madaniy turmushini qo'shimcha ravishda oydinlashtirib beruvchi ko'pdan ko'p diqqatga sazovor misollar uchraydi. Asarning qo'lyozma nusxalari Fransiya, Misr, Suriya, Turkiya va Rossiya kutubxonalarida saqlanmoqda.

Movarounnahr va Xurosonning 1404-1409 yillardagi siyosiy tarixini o'rganishda Xoja Tojiddin as-Salmoniyning "Tarixnoma" kitobi katta ahamiyat kasb etadi. Asar "Zayli Zafarnoma" ("Zafarnoma"ga qo'shimcha) nomi bilan ham

mashhur. Asar muallifi asli Isfahondan bo'lib, mohir xattot va devoni insho (yozishmalar devoni) ning ko'zga ko'ringan xodimi bo'lgan. Xoja Tojiddin as-Salmoniy Shohruh Xurosonga olib ketgan va asar uning topshirig'i bilan yozilgan. Muallif kitobni yozib tamomlay olmagan. Saroyda vazir Sayid Faxriddinga qarshi fitnada ishtirok etgani uchun qamoqqa olindi. Xoja Tojiddin as-Salmoniy Amir Temurning so'nggi kunlari va Shohruh tarixini yozishni mo'ljilagan edi. Lekin muddaosiga yeta olmadi. Faqat 5-6 yillik tarixni yozib ulgurgan xolos. "Tarixnoma"da 1404 yilning kuzida Konigilda bo'lgan tantana va to'y-u tomoshalar, Amir Temurning Xitoyga yurishining boshlanishi, uning vafoti, Xalil Sultonning markaziy hokimiyatni tortib olishi va 1409 yil mart oyi oxirlarida uning Xudoydod boshliq bir guruh amirlar tarafidan asir olinishi tarixidan so'z yuritiladi [2:198].

Hofizi Abru va Muiniddin Natanzidan keyin Kamoliddin ibn Abdurazzoq ibn Mavlon Jaloliddin Ishoq as-Samarqandiyning nomi alohida ajralib turadi. U 1413- yilda Shohruh saroyiga yaqin bo'lgan imom oilasida tug'ilgan. Abdurazzoq Samarqandiy Shohruhning diplomatiya sohasidagi topshiriqlarini bajargan. Shohruh vafotidan keyin boshqa temuriylar huzurida xizmat qilgan. 1463-yildan boshlab Hirot madrasalaridan birida shayx bo'lgan va shu yerda taxminan 1483-yilda vafot etgan. G'oyat mashhur bo'lgan "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi") asari Abdurazzoq Samarqandiy qalamiga mansubdir. Bu asar XIV-XV asrlarga oid voqealarni o'z ichiga oladi. Muallif qo'lyozmani 1470-yilda yozib tugatadi, keyinchalik unga ba'zi o'zgarish va qo'shimchalar kiritdi. Asarda Amir Temur va temuriylar tarixi batafsil bayon qilingan, mazkur kitob Sharq va G'arbda ko'p marotaba nashr etilishining sababi ham shunda.

Temuriylar davrida ijtimoiy fanlarning muhim tarmog'i tarixnavislikda ham katta yutuqlarga erishildi. Mazkur davr tarixi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda bebaho manba hisoblanmish Sharofuddin Ali Yazdiyning

"Zafarnoma" asari, Hofizi Abro'ning "Zubdat ut-tavorix", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asarlaridan tashqari Mirxondning yetti jildidan iborat "Ravzat us-safo" asari, Xondamirning "Habib us-siyar" asari va hokazolar yaratiladi.

Xondamirning mashhur tarixchi bo'lib yetishuvida ulug' amir Alisher Navoiyning xizmati katta. U ma'rifatparvar olim hamda tajribali davlat arbobi sifatida yosh olimga yordam qo'lini cho'zadi, unga homiylik qiladi. "Habib us-siyar"da boy tarixiy ma'lumotlardan tashqari, etnografik (turk qavmlaridan barlos, arg'in, qipchoq, jaloyir, qo'ng'iroq va boshqalarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni), ijtimoiy-iqtisodiy tarzdagi tarixiy (amirlar va suvurg'ol egalarining davlat va jamiyatda tutgan o'rni, soliq va jarimalar haqida) daliliy ma'lumotlar, Temuriylar davlatining ma'muriy tuzilishi, markaziy davlat apparati, katta-kichik mansabdorlar va ularning huquq hamda vazifalari, mamlakatning madaniy hayoti, xususan, olimlar, shoirlar, musiqashunoslar va xattotlarning hayoti va faoliyati haqida ham qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz [6:30].

Amir Temur va uning farzandlari tarixi yana bir yirik tarixshunos olim – Muhammad ibn Xovandshoh ibn Muhammad (u ko'pincha Mirxond nomi bilan mashhur) tarafidan yozilgan. Mirxondni mashhur qilgan asari "Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo" ("Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida Jannat bog'i") deb nomlanadi. Asar yetti jildidan iborat bo'lib, yettinchi jildi 1467-yilgacha bo'lgan voqealarni qamrab oladi. Asar muallifning betoblighi va siyosiy beqarorliklar tufayli nihoyasiga yetmay qolgan. O'ziga xos jug'rofiy qo'shimcha bo'lgan asar xotimasi va yozilmasdan qolgan qismlar olimning nabirasi Xondamir tarafidan oxiriga yetkazilgan. Alisher Navoiyning topshirig'i bilan yozilgan bu asar umumiy tarix tarzidagi asardir. U dunyoning yaratilishidan to 1523-yilga qadar Movarounnahr, Eron va musulmon Sharqidagi boshqa mamlakatlarda kechgan voqealar haqida hikoya qiladi.

Bu davr tarixga oid asarlari orasida Davlatshoh Samarqandiy (1435-1495)ning “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoirlar zikrida”) sining oʻrni alohida sanaladi. Asarda (1486 yili yozilgan) hatto maxsus tarixiy asarlarda uchramaydigan oʻta foydali maʼlumotlar mavjud. Asarda Temur va temuriylar davrida oʻtgan shoirlar (ularning orasida temuriyzoda shoirlar ham bor), xotima qismida tarixiy voqealar, Xuroson sarbadorlari haqida keltirilgan maʼlumotlar muhim ahamiyatga ega.

Movarounnahr va Xurosonning XV asr soʻnggi choragi va XVI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli Xondamirning “Habib us-siyar fi axbor va afroz ul-bashar” (“Inson xabarlar va farzlarida doʻstning tarjimai holi”) va Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida keng bayon etilgan. Xondamir (1475-1535) isteʼdodli, sermahsul olim boʻlib, Xuroson va Movarounnahrning XV-XVI asr birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga bagʻishlangan oʻnga yaqin yirik asar yozib qoldirgan. Ular orasida “Habib us-siyar fi axbor va afroz ul-bashar” asari alohida oʻrin tutadi. Bu katta asar umumiy tarix tarzida yozilgan va uch jildidan iborat. Olim uni 1524 yili yozib tamomlagan boʻlsa-da, lekin asar ustida yana koʻp yil ish olib bordi va 1529 yili uni poyoniga yetkazdi. Asarning uchinchi jildi uchinchi va toʻrtinchi qismlarida katta daliliy maʼlumot asosida Xuroson va Movarounnahrda soʻnggi temuriylar: Sulton Ahmad, Sulton Muhammad va Husayn Boyqaro davri tarixi keng yoritib berilgan[2:202].

Temuriylar davri tarixchilari orasida jahonga shuhrat taratgan, oʻzbek tilida yozilgan mashhur “Boburnoma” asari va uning muallifi temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Boburni tilga olish joizdir. “Boburnoma”da XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida maʼlumot va xulosalar keltirilgan. Boburning davr haqida keltirgan maʼlumot va xulosalari oʻzining haqqoniyligi, mufassalligi bilan ajralib turadi. Bobur bu voqea va hodisalarni oʻz koʻzi bilan koʻrgan, oʻzi guvohlik bergan.

Bobur temuriylar saltanatining inqirozi ular oʻrtasida birlik va yakdillik yoʻqligidan, oʻzaro feodal kurash kuchayib ketganligidan, deb hisoblaydi. “Boburnoma”da XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Fargʻona vodiysida, Toshkent va uning tevarak atrofida, Xoʻjand, Samarqand va Hisor viloyatlarida istiqomat qilib turgan turk va mugʻul qavmlari, ularning urf-u odatlari haqida qimmatli maʼlumotlar keltiriladi. Bu maʼlumotlar etnograf olimlar uchun, xususan, oʻzbek, qozoq va Markaziy Osiyodagi boshqa turkiy xalqlarning etnik tarixini oʻrganishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Asarda karvon yoʻllari, Movarounnahr, Xuroson, Afgʻoniston va Badaxshonning shahar va mustahkamlangan qishloqlari, meʼmoriy yodgorliklari, oʻsha yerlarda istiqomat qilib turgan xalqlar, ularning urf-odatlari va mashgʻuloti haqida keltirilgan maʼlumotlar ham katta ahamiyat kasb etadi.

Temuriylar davri tarixnavisligida yana ikki muhim asar: “Muʼizz ul-ansob” (“Hurmatli kishilarning nasabnomasi”) va Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Xavofiyning “Majmai Fasihiy” (“Fasihiy toʻplami”)ning ahamiyati katta sanaladi. Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Xavofiyning “Majmai Fasihiy” asari oʻziga xos solnoma boʻlib, “dunyoning yaratilishi”dan muallifning zamonigacha Sharq mamlakatlarida, shuningdek, Movarounnahr bilan Xurosonda boʻlib oʻtgan muhim voqealar, mashhur kishilar, olimlar, shoirlar, davlat arboblari, rassomlar, bunyod etilgan muhtasham binolar (masjid, madrasa, karvonsaroy va suv inshootlari) haqida qimmatli maʼlumot beradi. Boʻlib oʻtgan voqealar asarda yilma-yil koʻrsatilgan.

“Muʼizz ul-ansob” tarixchi Rashiddin (1247-1318)ning “Shuʼabi panjgona” asarining qisqartirilgan variantidir. “Muʼizz ul-ansob”ning muallifi yuqorida tilga olingan Hofizi Abru deb faraz qilinadi. [4:85] Hofizi Abru “Shuʼabi panjgona”dan arablar, hindlar, xitoylar va farangiylarning kelib chiqishiga oid qismini chiqarib tashlagan va XIII-XIV asrlarda Movarounnahrni idora qilgan Chigʻatoyxon avlodi, Amir Temur va temuriylar shajarasini

qo'shgan. Amir Temur va temuriylarning kelib chiqishini o'rganishda bu asar muhim qo'llanma vazifasini bajaradi.

Amir Temurning ilm-fan homiysi sifatidagi faoliyatiga xorijiy olimlarning bergan bahosi ham alohida diqqatga sazovor. Jumladan, Temur faoliyatini o'rganuvchi pokistonlik olim Ahmad Hasan Doniy fikricha hozirgi zamon tarixi Amir Temurning buyuk shaxsiga yetarli e'tibor bermadi. U Osiyoda turk-islom yuksalishiga asos soldi. Tarix uning ilmu amali bilan tenglashadigan boshqa bir muqobil hodisani bilmaydi. U O'rta Osiyo tarixining sarchashmasidir. Hayot tarzini u boshqacha, yangi shaklga kirgiza oldi, o'troq hayot tarzi uchun hozir Markaziy Osiyoga xos bo'lgan yuksak ma'naviy taraqqiyot yo'lini ochib berdi. U va uning avlodlari madaniyat va fan taraqqiyotiga homiylik qildilar, shoirlar, tabiblar, olimlar, astronomlarning boshini siladilar [8:14].

Angliyalik tadqiqotchi Xilda Xukxem Amir Temur shaxsiyatini o'rganib, o'ziga xos haqiqatni tan olib, "Temur dunyoga kelgan yurtda – falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, geografiya, tarix, adabiyot sohalarida olamshumul asarlar yaratildi. Bu asarlar keyinchalik Yevropa uyg'onish davriga turtki bo'ldi va Yevropa fanining uzoq asrlar davomidagi taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qildi" [7:12], deb yozadi. Bu fikrlardan Amir Temur va temuriylar hukmronligi davri ilm-fan, san'at va madaniyat taraqqiy etgan asr bo'lganligini dunyo ilm ahli ham tan olganligiga ishonch hosil qilsa bo'ladi.

XULOSA

Amir Temur boshlab bergan ilm va ma'rifatga homiylik uning avlodlari hukmronlik qilgan davrda ham uzviy davom etib mamlakatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Temur va temuriylar davrida tarixnavislikning rivojlanishi o'sha davr uchun qanchalik ijobiy ahamiyat kasb etgan bo'lsa keyingi avlodlar uchun temuriy hukmdorlarning davlatchilik an'analarini, ular yashagan davr siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlari

haqida ma'lumotlarni olish uchun imkon beradi. Ayniqsa temuriy hukmdorlarning shaxsiyati va ularning siyosiy jarayonlarga ta'siri bilan bog'liq ma'lumotlar ilmiy nuqtai nazardan qimmatli hisoblanadi. Bundan tashqari Temur va temuriy hukmdorlarning tarixiga oid ma'lumotlar turlicha yondoshuvlar orqali yozilganligi uchun goho salbiy ma'lumotlarni o'qishga, goho haddan tashqari maqtovlarga berilgan manbalarni o'rganib shaxsiy ob'yektiv xulosalarga kelish mumkin. Eng asosiysi temuriylar davri tarixchilarining bergan ma'lumotlari o'rganilgandan keyin ulardagi ma'lumotlarni solishtirish orqali muayyan hudud va mintaqalarda tarixiy jarayonlar qanday kechganligi haqida tasavvurlarga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Temur tuzuklari / Forscha matndan A. Sog'unuy va H. Karomatov tarjimai. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Amir Temur jahon tarixida / Mas'ul muharrir Habibulla Karomatov – Toshkent: Sharq, 2001.
3. Bo'riyev O. Turon tarixining oltin davri. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2019.
4. Odilov A. Amir Temur tuzuklari davlat boshqaruvi asoslari – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2016.
5. Rahmonov T. Amir Temur va tarix // "Amir Temurning milliy davlatchilik siyosati: tarix va hozirgi zamon" mavzuidagi Amir Temur tavalludining 670 yilligiga bag'ishlangan ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent: Fan, 2006.
6. Yusupova D. Amir Temur saltanati davlat tuzulishi masalasiga doir. Amir Temur saboqlari // "Amir Temur va inson manfaatlari" mavzuida o'tkazilgan ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent: Sharq, 1998.
7. Xilda Xukxem. Властитель семи созвездий. – Toshkent: Sharq, 1995.
8. G'oyibov N. Amir Temur davri ma'naviyati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.